

**Raxmankulov Farxod Raximkulovich**

Termiz davlat pedagogika instituti “Falsafa, ma’naviyat  
asoslari va huquq ta’limi” kafedrası katta o’qituvchisi

e-mail: [fedizara07@gmail.com](mailto:fedizara07@gmail.com)

**UDK: 101-027.542**

## **QADRIYATLAR – MILLIY O‘ZLIKNI SHAKLLANTIRUVCHI ASOSIY OMIL SIFATIDA**

**Annotatsiya:** Maqolada mamlakatimizda qadriyatlarning tarixiy rivojlanish bosqichlari, ularning milliy o’zlikni shakllantirish jarayonidagi o’rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning tarixiy taraqqiyot hamda zamonaviy jamiyat hayotidagi roli ko’rib chiqiladi, ayniqsa, ularning milliy o’zlikni shakllantirishga ta’siri alohida e’tiborga olinadi. Shuningdek, qadriyatlarning milliy o’zlik hissini shakllantirishdagi muhim tarkibiy omil sifatidagi namoyon bo’lishiga doir yondashuvlar umumlashtiriladi.

**Kalit so‘zlar:** millat, milliy o’zlikni anglash qadriyat, milliy qadriyat, shaxsiy qadriyat, umuminsoniy qadriyat, mustaqillik, taraqqiyot.

**Рахманкулов Фарход Рахимкулович**

Термезский государственный педагогический институт,  
Старший преподаватель кафедры Философии,  
основы духовности и правового образования

e-mail: [fedizara07@gmail.com](mailto:fedizara07@gmail.com)

**Аннотация:** В данной статье рассмотрен вопрос об эволюции развития ценностей в нашей стране, их значении в формировании чувства национального самосознания. Автор попытался обобщить подходы, согласно которым национальные и общечеловеческие ценности служат важным компонентом в формировании чувства национальной идентичности, высказывая мнения и размышления об их значении в нашей истории и сегодня.

**Ключевые слова:** нация, национальная идентичность, ценность, национальная ценность, личная ценность, общечеловеческая ценность, независимость, развитие.

**Rakhmankulov Farkhod Rakhimkulovich**

Termez State Pedagogical Institute, Senior Lecturer,  
Department of Philosophy, Fundamentals of Spirituality and Legal Education  
e-mail: [fedizara07@gmail.com](mailto:fedizara07@gmail.com)

**Annotation:** This article examines the evolution of values in our country and their significance in shaping a sense of national identity. The author attempts to summarize the approaches that suggest that national and universal values serve as an important component in fostering a sense of national identity, offering insights and reflections on their significance in our history and today.

**Keywords:** nation, national identity, value, national value, personal value, universal value, independence, development.

### **Kirish.**

Ming yillik tarixga ega O'zbekiston yerlarida sodir bo'lgan tarixiy voqealar xalqning o'ziga xos qadriyatlari va dunyoqarashining shakllanishiga zamin yaratgan. Turli madaniyat va e'tiqodlarning tutashgan maskani bo'lgan bu hudud o'zining milliy an'analari bilan ajralib turadi va bu qadriyatlar hozirgacha asrab-avaylab kelinmoqda.

Ma'lumki, falsafiy manbalarda "milliy qadriyat" va "shaxsiy qadriyat" tushunchalari qadriyatlarning muayyan shakllari sifatida talqin etiladi. Shu bois ko'plab tadqiqotchilar tarix davomida "milliy va shaxsiy qadriyatlar" masalasini umumiy "qadriyat" kategoriyasi doirasida sharhlab kelganlar.

### **Adabiyotlar tahlili.**

Amerikalik sotsiolog olim M.Rokich yozishicha, qadriyatlar inson yoki jamiyat tomonidan ma'qullanadigan xatti-harakat yoki maqsadga doir barqaror e'tiqodlardir [8]. Professor Q.Nazarov o'zining dissertatsion ishida ta'kidlashicha, qadriyatlar muammosining falsafiy-tarixiy tahlili naqlar, rivoyatlar, afsona, hikoyat, dostonlarga, ya'ni xalq og'zaki ijodi namunalariga borib taqaladi [9].

Olimning ushbu fikriga qo'shilgan holda, qadriyat kategoriyasining falsafiy-tarixiy tahlili xalq og'zaki ijodining boy merosi asosida ko'rib chiqilishi mumkin. Bu jihat qadimiy naqlar, rivoyatlar, afsonalar, hikoyatlar va dostonlar orqali avloddan avlodga o'tib kelgan qadriyatlarning o'rnini va ahamiyatini ko'rsatadi.

Professor Q.Nazarov qadriyatlarga to'xtalar ekan, xalq og'zaki ijodida ko'proq umumbashariy va umuminsoniy qadriyatlarga e'tibor berilgan, ularning mohiyati, mazmuni turlicha talqin qilingan [9], – deb fikr bildirgan. Xalq og'zaki ijodida umumbashariy va umuminsoniy qadriyatlarga katta e'tibor berilishi sababi, ular xalqning madaniy merosining ajralmas qismidir. Ushbu qadriyatlar asrlar davomida xalq og'zaki ijodida saqlanib, avloddan-avlodga o'tib kelgan. Xalq og'zaki ijodining eng muhim jihatlaridan biri – bu insonparvarlik, mehr-oqibat va adolat kabi umumbashariy qadriyatlarni ifoda etishidir.

Diniy dunyoqarash milliy va shaxsiy qadriyatlarning rivojida asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Millat madaniyati va an'analari ko'p jihatdan diniy e'tiqodlar bilan uzviy bog'liqdir. S.F.Xantington o'z tadqiqotlarida madaniy va diniy qadriyatlarning jamiyatlar va millatlar hayotidagi o'rni haqida" ma'lumot beradi. S.F.Xantington sivilizatsiyalar, ya'ni madaniyat va din asosida shakllangan yirik jamiyatlar o'rtasidagi farqlar va mojarolarni tahlil qiladi. U madaniy va diniy qadriyatlarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotga qanday ta'sir qilishini o'rganadi [6].

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Qadriyatlar, ularning jamiyat va shaxs hayotidagi ahamiyatini falsafiy jihatdan tahlil qilishga bag'ishlangan mazkur maqolada ilmiy tadqiqotning analogik tahlil, germevntik tahlil, ijtimoiy-falsafiy tahlil kabi metodlaridan keng foydalanilgan.

### **Tahlillar va natijalar.**

Hikmatli so'zlar va maqollar insoniyatning asrlar davomida to'plangan tajribasi hamda hayotiy-falsafiy qarashlarini mujassam etadi. Rivoyat va afsonalar qadim davrlardan xalq og'zaki ijodida yashab kelayotgan hikoyalar bo'lib, ular orqali millatning turmush tarzi, urf-odatlar va qadriyatlari aks ettiriladi.

Afsonalarda odatda afsonaviy qahramonlar obrazi tasvirlanib, ularning jasorati, mardligi va ezgu ishlari orqali axloqiy qarashlar, adolat, matonat va fidoyilik kabi yuksak fazilatlar targ'ib qilinadi. Dostonlar esa tarixiy voqealar bilan bog'liq bo'lib, unda xalqning tarixiy xotirasi, hayotiy kurashi va milliy qadriyatlari ifodasini topadi.

Diniy e'tiqodlar milliy qadriyatlarni mustahkamlashga yordam beradi va ularni avlodlarga yetkazish vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, shaxsiy qadriyatlar ham diniy dunyoqarashlar orqali rivojlanadi, chunki diniy ta'limotlar insonlarning axloqiy meyorlarini belgilaydi va ularning hayotiy qarorlariga ta'sir ko'rsatadi. E.Dyurkgeym o'zining kitobida diniy e'tiqodlarning jamiyat tuzilmasiga va milliy qadriyatlarga ta'siri haqida keng ma'lumot beradi [4]. Olim turli diniy e'tiqodlarning asosiy elementlari va ularning jamiyat hayotidagi ta'siri haqida fikrlarni bayon qilgan. Diniy dunyoqarashlar milliy va shaxsiy qadriyatlarni birlashtiruvchi omil bo'lib, ular jamiyatning barqarorligini va birligini ta'minlaydi.

Ajdodlarimizning qadimgi kitobi "Avesto" diniy-falsafiy merosimizning eng yorqin namunasi, qadimgi xalqlarimizning umuminsoniy qadriyatlari yoritib berilgan asardir [10]. Bu kitobda milliy va shaxsiy qadriyatlar borasida matnlar uchraydi. Masalan, James Darmesteter tomonidan tarjima qilingan "The Zend-Avesta" asarida milliy qadriyatlar haqida turli fikrlar keltirilgan. "Avesto"da adolat va ijtimoiy tartib muhim milliy qadriyatlar sifatida tasvirlangan. Zardushtiylikda har bir insonning jamiyatdagi o'rni va vazifasi bor, bu vazifalarni bajarish orqali jamiyatda adolat va tartib saqlanadi. Avesto matnlarida madaniy merosning saqlanishi va rivojlanishi haqida ko'p gapiriladi. Ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelgan an'analar va urf-odatlar avloddan-avlodga o'tkazilishi kerak, bu esa milliy qadriyatlarni mustahkamlaydi.

"Avesto" zardushtiylikning diniy tamoyillarini va amallarini saqlashni targ'ib qiladi, bu esa xalqning diniy va milliy birligini mustahkamlaydi. Jamiyat uchun fidoyilik va mehnat qilish, oila va jamoa uchun jonbozlik ko'rsatish "Avesto"da alohida qadrlanadi. Bu qadriyatlar milliy birdamlik va taraqqiyot uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi. "Avesto"da yurtimiz zaminida yashagan

xalqlarning islomgacha bo'lgan davrdagi tabiiy-ilmiy, ayniqsa, axloqiy fikrlari rivojlanishi tarixiga oid g'oyat qiziq manbalar bor.

O'rta Osiyo tarixi davomida ko'plab madaniy va falsafiy ta'sirlarni o'zida mujassam etgan mintqa sifatida tanilgan. Monizm davri, o'z navbatida, bu yerda qadriyatlar va dunyoqarashlarning shakllanishida muhim rol o'ynadi. Ushbu davr mintaqaning madaniy va ijtimoiy hayotida chuqur iz qoldirdi.

Islom davri mintaqadagi qadriyatlar masalasida katta ahamiyatga ega. Islom dini faqat ibodat va diniy amallar bilan cheklanmay, balki jamiyatdagi axloqiy va madaniy qadriyatlarni ham shakllantiradi. Islomiy qadriyatlar insonning hayot tarzini, munosabatlarini va jamiyatdagi o'zaro aloqalarni belgilab beradi.

Islom dini yurtimizga kirib kelganidan keying davrlarda ichki urushlar nisbatan barham topgan, ijtimoiy hayotda nisbatan barqarorlik hukm surayotgan edi. Bu nisbiy barqarorlik davrida madaniy rivojlanish, ilm-fan hamda adabiyotning taraqqiyoti uchun imkoniyat ochildi. O'sha davrning buyuk mutafakkirlaridan biri Muhammad Muso al-Xorazmiy xalifa Ma'mun tashkil qilgan "Baytul hikma"da katta mavqega ega bo'lgan. U ilgari surgan g'oyalarda qadriyatlarning umuminsoniy jihatlari izohlangan [11].

Sharq madaniyati tarixida muhim o'rin tutgan alloma Abu Nasr Forobiy (873-950) ham qadriyatlarga katta e'tibor bergan. Forobiyning qadriyatlar to'g'risidagi fikrlari "Madina al-fozila" kitobida to'laroq ifodasini topgan [5].

Bu davrda yashagan yana bir qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy hisoblanadi. Beruniyning asarlari orasida "Hindiston" (Kitob al-Hind) nomli asari alohida o'rin tutadi. Bu asarida u Hindiston madaniyati, dinlari va turmush tarzini batafsil tasvirlab bergan. Mutafakkir "Hindiston" asarida hindlar turmushi haqida, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar, marosimlarning ahamiyatini, ularning rang-barangligini ta'kidlaydi. Inson uchun asosiy qadriyatlardan bo'lgan jamoa va tilning vujudga kelishini odamlarning birlashishiga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqqan deya izohlaydi [1]. Beruniy o'z asarida turli xalqlarning urf-odatlari va e'tiqodlarini chuqur tadqiq etib, ularni tushunishga va hurmat qilishga da'vat etadi.

Tasavvuf namoyandalaridan biri Ahmad Yassaviy (1105-1166) diniy, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning o'sha zamonga mos keladigan tizimining namoyon bo'lishi va amal qilish shartlarini islom dini nuqtai nazaridan ta'riflab bergan. So'fiylik asoslarini targ'ib qiladigan "Devoni hikmat" majmuasida Ahmad Yassaviy qadriyatlarning asosiy shakllari – poklik, hayo, bardosh va sabr-qanoat, chidam, beozorlik xokisorlik kabi xislatlarga ta'rif bergan. Ahmad Yassaviy o'zining hikmatlari orqali milliy va shaxsiy qadriyatlar borasida ham muhim fikrlarni ilgari surgan. Uning asarlari nafaqat diniy va ma'naviy yo'nalishda, balki jamiyatning axloqiy va madaniy qadriyatlarini shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega [2].

O'zbek adabiyoti va madaniyatining buyuk namoyandasi Alisher Navoiy qadriyatlar masalasida o'ziga xos g'oyalarni ilgari surgan. Uning asarlarida milliy va shaxsiy qadriyatlar, axloqiy meyorlar va insoniy fazilatlar keng yoritilgan. Navoiyning fikrlari nafaqat uning davrida, balki hozirgi zamonda ham dolzarb bo'lib, ular insoniyatning ma'naviy hayotini boyitishda muhim o'rin tutadi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyo hududida "qadimlar" va "jadidlar" oqimlari vujudga keldi. Hayotda ro'y berayotgan turli o'zgarishlarni o'rganish, umummilliy qadriyatlarimizni jahon taraqqiyoti talablari nuqtayi nazaridan tahlil qilish borasida Ismoilbey Gaspirali, Mahmudxo'ja Behbudiy, Saidrasul Aziziy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Cho'lpon, Fitrat kabi zamonasining ilg'or kishilari katta yutuqlarga erishdilar [7]. Ular o'zlarining ma'rifatparvarlik va islohotchilik g'oyalari bilan jamiyatda madaniy, ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirishga intilganlar.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, qadriyatlar masalasi davlat siyosati va ijtimoiy hayotning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Yurtimizda mustaqillik yillarida milliy, diniy va shaxsiy qadriyatlarni tiklash, ularni asrab-avaylash hamda rivojlantirishga qaratilgan ko'plab g'oyalar ilgari surildi. Ushbu yondashuv natijasida milliy o'zlikni anglash, boy ma'naviy merosni avloddan-avlodga yetkazish va jamiyatda axloqiy tamoyillarni yuksaltirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Istiqlol davrida xalqimizning tarixiy va madaniy qadriyatlarini tiklash borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Milliy urf-odatlar, an‘analar, marosimlar qayta tiklandi, milliy madaniyat va san‘atni rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlari ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. Navro‘z, Mustaqillik kuni kabi milliy bayramlarning yuksak saviyada nishonlanishi esa xalqning milliy o‘zligini mustahkamlash, madaniy merosni asrab qolish va uni rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qildi.

### **Xulosa.**

Xulosa sifatida aytish mumkinki, yurtimizda azal-azaldan qadriyatlar masalasi shaxs va jamiyat hayotining muhim qismi hisoblangan. Ayniqsa mustaqillik yillarida milliy, shaxsiy va diniy qadriyatlarni tiklash, saqlash va rivojlantirish borasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi. Bu g‘oyalar orqali xalqning ma‘naviy hayoti boyitilib, jamiyatda axloqiy meyorlar yuksaldi. Milliy o‘zlikni anglash, madaniy merosni asrab-avaylash va shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish orqali O‘zbekiston jamiyati ma‘naviy jihatdan boyidi va taraqqiy etdi.

### **Adabiyotlar:**

1. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. T.2. (Hindiston). – Toshkent: Fan nashriyoti, 1968. – 639 b.
2. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. – Toshkent: Fan, 1990. – 246 b.
3. Darmesteter J. The Zend-Avesta (Sacred Books of the East, Vol. 4) // Kessinger Publishing, LLC 2004. – 616 p.
4. Durkheim E. The Elementary Forms of Religious Life. – New York: Free Press, 1995. – 464 p.
5. Farobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nashriyoti, 1993 – 243 b.
6. Huntington S. P. The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. Simon & Schuster. 1996.
7. Jumaboyev Y. O‘rta Osiyo etikasi tarixi ocherklari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1980. – 317 b.

8. Milton R. The Nature of Human Values. – New York: Free Press, 1973. – 438 p.
9. Nazarov Q. Qadriyatlar tizimi: barqarorlik va o'zgaruvchanlik dialektikasi: aksiologiyaning ijtimoiy-falsafiy muammolari. F.f.d.diss. – Toshkent: 1996. – 311 b.
10. Xayrullayev M.M. O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. – Toshkent: O'zbekiston, 1995. – 240 b.
11. Файзуллаев Ф.А. Научное творчество Мухаммед ал-Хорезми. – Ташкент: Фан, 1983. – 218 с.